

XALQ MUSIQA IJODIDA MILLIY MENTALITET VA MA'NAVİY QADRIYATLARNING AKS ETISHI**Otepbergenova Dilbarxanum Ayapbergenovna – dotsent**ahmedovadila11@gmail.com*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali***ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА И ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ
В НАРОДНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ТВОРЧЕСТВЕ****Утепбергенова Дильбарханум Аяпбергеновна – доцент***Нукусский филиал государственного института искусства и культуры Узбекистана***REFLECTION OF NATIONAL MENTALITY AND SPIRITUAL VALUES IN FOLK MUSIC CREATION****Utepbergenova Dilbarxanum Ayapbergenovna – Associate Professor***Nukus Branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture*

Tayanch so'zlar: xalq musiqa ijodi, milliy mentalitet, ma'naviy qadriyatlar, folklor musiqa, estetik tarbiya, milliy identifikatsiya, musiqiy madaniyat, an'anaviy ijrochilik, lad, ritm, ma'naviy kamolot.

Rezyume. Mazkur maqolada xalq musiqa ijodida milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlarning aks etish xususiyatlari musiqiy-estetik hamda madaniy yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, xalq qo'shiqlari va kuylarining melodik tuzilishi, lad tizimi, ritmik xususiyatlari hamda an'anaviy ijro uslublari orqali xalqning dunyoqarashi, ruhiyati va axloqiy qarashlari ifodalanishi, xalq musiqa ijodining ma'naviy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishdagi roli, uning milliy mentalitetni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Ключевые слова: народное музыкальное творчество, национальный менталитет, духовные ценности, фольклорная музыка, эстетическое воспитание, национальная идентичность, музыкальная культура, традиционное исполнительство, лад, ритм, духовное совершенство.

Резюме. В данной статье анализируются особенности отражения национального менталитета и духовных ценностей в народном музыкальном творчестве на основе музыкально-эстетического и культурного подхода. Также обоснованы мелодическая структура, ладовая система, ритмические особенности народных песен и мелодий, а также выражение мировоззрения, психики и нравственных взглядов народа через традиционные исполнительские стили, роль народного музыкального творчества в передаче духовных ценностей из поколения в поколение, его значение в формировании национального менталитета.

Key words: folk musical creativity, national mentality, spiritual values, folklore music, aesthetic education, national identity, musical culture, traditional performance, mode, rhythm, spiritual maturity.

Summary. In this article, the features of the reflection of national mentality and spiritual values in folk musical creativity are analyzed based on a musical-aesthetic and cultural approach. Also, the expression of the worldview, psyche, and moral views of the people through the melodic structure, modal system, rhythmic features, and traditional performance styles of folk songs and melodies, the role of folk musical creativity in the transmission of spiritual values from generation to generation, and its significance in the formation of the national mentality are substantiated.

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [1] – deya ta'kidlaydi. Ana shunday ma'naviy ozuqa manbai sanalgan kuchli omillardan biri xalq musiqa ijodiyotidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodlarimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir etmoqda". Ayniqsa, xalq musiqa ijodi bu jarayonda alohida o'rin tutadi, chunki u nafaqat estetik hodisa, balki milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlarning konsentrlashgan ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand qilish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ezgu va xayrli ishlarni amalga oshirish natijasida yoshlarning ma'naviy salohiyati, badiiy-estetik didi hamda keng dunyoqarashining tarkib topishiga zamin yaraladi.

Asosiy qism. Milliy mentalitet – bu muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan tafakkur tarzi, qadriyatlar tizimi va hayotga munosabatini ifodalovchi kompleks tushunchadir. Xalq musiqa ijodida ushbu mentalitet, avvalo, qo'shiqlar mazmuni, ohang tuzilishi, ritmik xususiyatlari va ijro uslubida o'z ifodasini topadi. Masalan, o'zbek xalq qo'shiqlariga xos lirizm, ichki sokinlik, mulohazakorlik va ma'naviy teranlik milliy xarakterga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu holat xalqning hayotga falsafiy yondashuvi, sabr-toqat, qanoat va muvozanatga intilish kabi sifatleri bilan bevosita bog'liqdir.

Xalq qo'shiqlarining mavzu doirasi ham milliy mentalitetni ifodalovchi muhim omil hisoblanadi. Mehnat qo'shiqlarida xalqning mehnatsevarligi va tabiat bilan uyg'un yashash an'analari aks etsa, marosim qo'shiqlarida urf-odatlar, rasm-rusumlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi ifodalanadi. Lirik qo'shiqlarda esa insoniy tuyg'ular – muhabbat, sog'inch, sadoqat, mehr-oqibat kabi hissiyotlar milliy ruhda talqin qilinadi. Shu tariqa xalq musiqa ijodi orqali jamiyatning ichki ma'naviy olami va qadriyatlari tizimi avloddan-avlodga uzatiladi.

Xalq musiqa ijodida milliy mentalitet avvalo xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Folklor qo'shiqlari, marosim kuylari, doston va termalar mazmunida jamiyatning kollektiv ongiga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi

mujassamlashgan bo‘lib, ular orqali yosh avlod ongiga milliy ruh, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hurmat va ona vatanga sadoqat kabi sifatlar singdiriladi. Bu jihat musiqa san‘atining tarbiyaviy funksiyasini yanada kuchaytiradi va uni samarali pedagogik vositaga aylantiradi.

Xalq musiqa ijodiyoti asrlar davomida xalqimizning ruhiyati, orzu-umidlari, mehnat va turmush tarzini ifoda etgan muhim madaniy qatlam sifatida e’tirof etiladi. An’anaviy xalq og‘zaki kasbiy musiqa ijodi an‘analarning yuzaga kelishi, davrlar osha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma’naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o‘zining yuksak namunalari asosida nafaqat aholining ma’naviy-ruhiy madaniyatini, balki odob-axloq me’yorlarini tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu san‘at va badiiy ijodiyotning inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida sharqning buyuk faylasufi, Abu Nasr Al-Farobiy “Bu fan (ya’ni musiqa) shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l atvori muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganni kamolotga, muvozanatda bo‘lganlarning muvozanatini saqlaydi”. “To‘g‘ri va mahorat bilan o‘rgatilgan musiqa insonda go‘zallik va yaxshilik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, uni aqlan va axloqan kamolga yetkazadi”. – deya ta’kidlab o‘tgan. O‘zbek musiqa san‘atida ko‘p yillardan buyon avloddan-avlodga o‘tib sayqal topib kelayotgan, o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti uzoq yillik tarixga ega. Ushbu xalq musiqasi, an’anaviy qo‘shiqlar va o‘ziga xos ijro uslublarini saqlab qolgan, milliy madaniyat va urf-odatlariga asoslangan san‘at turidir. Xalq musiqa ijodiyoti o‘z mazmuniga ko‘ra uzoq o‘tmishga ega xalqning etnik turmush taraqqiyoti, qadriyati an‘anasi, urf-odati, marosimlarini o‘zida ifoda etadi.

Respublikamizda mustaqillik yillaridan boshlab o‘zbek xalqining boy madaniyati, qadriyati, an‘ana va urf-odatlari qayta tiklana boshladi. Shuning bilan bir qatorda jamiyatimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi musiqa san‘atida ham qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Bundan asosiy maqsad yosh avlodni xalq musiqa ijodiyoti vositalari yordamida milliy-ma’naviy ruhda tarbiyalash, ularda xalqimizning tarixi, milliy madaniyati, o‘zbek milliy an‘ana va qadriyatlariga hurmat, vatanni sevis, milliy g‘urur va iftixor his-tuyg‘ularini tarkib toptirishdir. Buning uchun ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yosh avlodni xalqimizning azaliy milliy urf-odatlarga, an‘analariga, san‘atiga ongli munosabatini tarkib toptirish talab etiladi. Shu maqsadda ta’limning mazmunini milliy asosda barpo etish, bunda milliy musiqiy meros imkoniyatlaridan foydalanish, milliy musiqa san‘atini rivojlantirish eng asosiy vazifa qilib belgilandi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son [2] Qarorida ustuvor o‘rin ajratilgan.

Shuning bilan bir qatorda o‘quvchilarning estetik tafakkurini kengaytirishda uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan xalq musiqa ijodiyoti a’lohida ahamiyatga ega. O‘zbek xalq ijodiyotini o‘rganish hamda bu kabi musiqiy namunalarni vositasida o‘quvchi yoshlarni har tomonlama kamol toptirish ijodiy pedagogik jarayondir.

O‘zbek musiqa san‘atining eng noyob durdonalaridan bo‘lgan xalq ashulalari, maqomlar va milliy kuy-qo‘shiqlar xalqimiz tarixi va madaniyatining ajralmas qismidir. Ushbu milliy musiqiy madaniy meros namunalari o‘zining rang-barangligi, xushohangligi hamda mazmundorligi bilan boshqa san‘at namunalaridan ajralib turadi. Bugungi kunda

milliy-musiqiy madaniy meros namunalari xalqaro tashkilotlar e’tiborini ham o‘ziga jalb qilib, dunyo sahnasida munosib o‘rin egallamoqda. Xususan, UNESCO tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi konvensiyasida ham an’anaviy musiqa, raqs, badiiy adabiyot va boshqa madaniy ifodalarni saqlash va rivojlantirishga a’lohida ahamiyat qaratilgan.

Dunyodagi jamiyati xalqlar tarixiy shakllanish jarayonida insoniyatning eng go‘zal fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan va qator an‘analarni meros sifatida avloddan-avlodga yetkazib, avaylab kelganlar. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi muhim voqea, omil va tadbirlarni, chunonchi, kundalik turmush bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat, qadriyat, udumlar va marosimlarni saqlashga katta e’tibor berganlar. Ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy voqealar ta’sirida xalqning tili, ma’naviyati, ruhiyati bilan bog‘liq xususiyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va ular asosida yangidan-yangi oqim, yo‘nalishlarning yuzaga kelishi madaniyatning asosiy qonuniyatlaridan biri hisoblangan. Azal-azaldan hayotning turli tarmoqlarida muayyan shart-sharoitlar, voqe‘lik, ma’naviy ehtiyojlar bilan bog‘liq marosim, tadbir va amallar rang-barang ko‘rinishlarda tarkib topgan. Avlodlarning asrlar osha u yoki bu tadbirga amal qilib kelishlari jarayonida ularga bo‘lgan ehtiyoj uzilib qolmaslik, marosimlarni sharoit taqozo etgan vaqtda o‘tkazib turish va muntazam davom ettirish asta sekin rasm bo‘lib kelgan.

Xalqimiz hayotida ham mavjud an‘analarning avloddan-avlodga o‘tishi ko‘proq bir umumiy jarayon (jonli jarayon), ya’ni ijro talqini (ijrochilik) bilan xarakterlanadi. Yaratilgan har bir san‘at namunasi an‘ana tizimida shakllanishi, uning umr davomatida «ijrochilik» omili sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ana shunday san‘at turlaridan biri an’anaviy xonandalikdir.

Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlanib an‘analimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi [3]. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’naviy qadriyatlar xalq musiqa ijodining mazmunini asosini tashkil etadi. Bu qadriyatlar xalqning axloqiy me’yorlari, estetik ideallari va ijtimoiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, musiqa vositasida badiiy shaklda ifodalanadi. Xususan, ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga mehr, vatanparvarlik, sadoqat va halollik kabi qadriyatlar ko‘plab xalq qo‘shiqlarida asosiy g‘oya sifatida ilgari suriladi. Bu esa xalq musiqasining tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi va uni ma’naviy kamolot vositasiga aylantiradi. Xalq qo‘shiqlari va kuylarining

melodik tuzilishi, lad asoslari va ritmik harakati orqali ma'naviy qadriyatlar nafaqat mazmunan, balki tovushiy-badiiy shaklda ham ifodalanadi. Masalan, cho'zma va ohista rivojlanuvchi kuylar insonning ichki kechinmalarini, sadoqat va sabrni ifodalasa, jo'shqin va ritmik harakatga ega kuylar mehnatsevarlik, quvonch va jamoaviylik ruhini aks ettiradi. Shu jihatdan musiqiy bilimlar ma'naviy qadriyatlarning bevosita hissiy idrok orqali uzatiluvchi shaklidir. Bundan tashqari, xalq musiqa ijrosining an'anaviy uslublari ham milliy mentalitetning ajralmas qismi hisoblanadi. Ijrodagi tabiiylik, ortiqcha bezaksizlik, ohangning ichki mazmuniga sodiqlik kabi xususiyatlar xalqning samimiylik va soddalikni qadrlashiga mos keladi. Ayniqsa, og'zaki an'ana asosida shakllangan ijrochilik maktablari musiqiy merosning asl ruhini saqlash va uni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalq musiqa ijodi o'zining musiqiy ifoda vositalari orqali milliy o'zlikni anglash va saqlashning samarali omili sifatida namoyon bo'ladi. Uning ohang tizimi, lad xususiyatlari va ijro an'analari boshqa madaniyatlardan ajralib turuvchi milliy identifikatsiya belgilarini shakllantiradi. Bu esa, ayniqsa, zamonaviy madaniy jarayonlar ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda xalq musiqa merosining ahamiyatini yanada oshiradi.

Xalq musiqa ijodiyotining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri ilg'or g'oyaviylikdir. Xalq har bir sohada o'z istaklarini tezroq amalga oshirishni orzu qilib yashaydi va shu orzularni amalga oshirish yo'lida qilayotgan sa'yi-harakatlarini turli tarzda ifodalashga intiladi. Shu tufayli u folklorga murojaat qiladi, o'zining butun dardu hasratini to'kib soladi. Shu tariqa xalq qo'shiqlari vujudga keladi. Demak, xalq qo'shiqlarini asosan xalq yaratadi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlarining tili – xalqning jonli so'zlashuv tili hisoblanadi va so'zlarning turli shevalarda, turli dialektlarda talaffuz qilinishi, arxaik ifodalardan foydalanilishi tabiiy bir holdir. Xalq qo'shiqlari har doim yuksak badiiyligi va taosirchanligi bilan ajralib turadi. Xalq qo'shiqlari ramziy obrazlar, sifatlash mahorati, erkalatish, mubolag'a va boshqa noanaviy formulalarning ko'p ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Xalq qo'shiqlari anonim (grekcha noma'lum) kishilar tomonidan yaratilgan bo'lib, u og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida ommaviy ijrochilik tusini olgan. Xalq og'zaki ijodiyoti namunasi sifatida xalq qo'shiqlari manbai qadim zamonlarga daxldor bo'lganligi uchun, ular nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo'lmagan bir davrlardan boshlangan va ular ustoz-shogird an'analari asosida bizgacha etib kelgan. Xalq qo'shiqlarining abadiy saqlanib qolishida xalq xotirasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Har bir narsa xalqning tajribasi, dididan o'tgandan keyingina an'anaga aylanadi. Xalq qo'shiqlarining aksariyat qismi xalq an'analari bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan. Har bir davr kishilari o'z badiiy zavqi, ma'naviy estetik didi va tafakkuri bilan bu asriy an'analarni boyitib borgan hamda unga o'z hissasini qo'shgan. Xalq ijodkorligi namunalari sifatida qadimdan aytib kelingan xalq qo'shiqlari turli hududlarda turlicha kuylab kelingan. Bu xalq asarlarining xilma-xil nusxalarda takrorlanishiga olib

kelgan, bu ko'p variantlilikka xalq qo'shiqlari rivojining o'ziga xos taraqqiyot manbai deb qarash joizdir. Xalq qo'shiqlarining ommaviyligi, an'anaviyligi shu bilan izohlanadi. Xalq ohanglari va qo'shiqlari bastakorlar ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Uzoq o'tmishdan bastakorlar ijodida ustuvor o'rin egallab kelgan VII asr musiqachilaridan biri Markaziy Osiyolik mashhur bastakor Borbad Marvaziy xalq qo'shiqlari va kuylarini mukammal egallagan hamda u saroyda musiqachilar tarbiyasiga ham alohida eotibor bergan [4].

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda [3]. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, Xalq musiqa ijodi milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlarning eng tabiiy va chuqur ifoda shakli sifatida namoyon bo'ladi. Unda xalqning ichki ruhiyati, hayotga munosabati va estetik qarashlari, avvalo, musiqiy til ohang, lad, ritm va ijro uslubi orqali aks etadi. Ayniqsa, o'zbek xalq musiqasiga xos bo'lgan mayinlik, lirizm, ichki sokinlik va ohangdorlik milliy xarakterga xos mulohazakorlik, sabr-toqat va ruhiy muvozanat kabi sifatlar bilan bevosita uyg'unlashadi. Umuman olganda, xalq musiqa ijodi musiqiy ifoda vositalari orqali milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlarni uyg'un holda aks ettiruvchi noyob san'at hodisasi bo'lib, uning estetik, tarbiyaviy va madaniy salohiyati nihoyatda yuqoridir. Uni asrab-avaylash, chuqur anglash va zamonaviy ijro hamda ta'lim jarayonlari bilan uyg'unlashtirish milliy musiqa madaniyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga oid nutq va ma'ruzalar. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3391-son Qarori.
3. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqasi. I jild. – Toshkent: «Ibn Sino», 1994.
4. Mirzayev T., Safarov O., Qorayeva D. O'zbek xalq ijodi xrestomatiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 2008.